

NUTQIY KALIMALARNING LISONIY VOSITALARINING MILLIY HUSUSIYATLARI

Raximova Irodahon Bahodirovna

O'qituvchi,

Andijon davlat chet tillari instituti,

Andijon, O'zbekiston,

E-mail: rakhimova 1974@gmail.com

Halqlar turmush tushunchalarini anglatadigan lisoniy vositalar hos so'zlar deyiladi. Muayyam bir halq, millat va elatga hos tushuncha, narsa va hodisalarni aks etiradigan lisoniy vositalar badiiy asarning milliy hususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi. Demak, har qanday badiiy-g'oyaviy barkamol asar o'zida birday ham baynalmilallikni, ham milliylikni mujassam etishi bilan ajralib turadi. Baynalminallik asarning mazmuni va g'oyasida, milliylik esa uning shaklida namoyon bo'ladi. Badiiy asarning shakli qator jihatlari bilan birga uning tilini, hususan lug'at tarkibini o'z ichiga oladi: asarning milliy hususiyati asosan leksik va frazeologik birliklar yordamida yaratiladi.

Tillar orasidagi tafovut esa odatda bir halq moddiy hayotida mavjud muayyan tushunchalar, voqeа-hodisalar, urf-odatlarning ikkinchi halq turmush tarzida uchramasligi shu tufayli ular nomlarining ham ayni halq tilida tabiiy ravishda yo'qligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, lug'aviy ekvivalentlik munosabatida bo'lgan ayrim ikki til juftliklari bir-birlaridan biror hususiyatlari bilan o'ziga hos ravishda farq qilishlari mumkin. Bu hol til birliklarining milliy hususiyatini belgilash baravarida ularning tarjimada o'zaro almshinuvlariga to'sqinlik qiladi.

Asliyatning o'ziga hosligi asosan uning tarkibidagi lisoniy vositalarning milliy hususiyatlari bilan belgilanar ekan, asliyatning badiiy-g'oyaviy zaminini asliy monand tiklash asarning milliy bo'yog'ini qayta yaratish bilan bog'liqdir[2.216]. Shuning uchun ham tarjimada milliy hususiyatni tiklash masalasi keyingi paytlarda tarjimonlarning ham, tarjimashunoslarning ham e'tiborini o'ziga borgan sari ko'proq tortib kelmoqda. Chunki tarjimaviy nuqsonlarning ko'pchiligi tarjimada milliy hususiyatni tiklash bilan bog'liq bo'lib, bu masala hanuzgacha nazariy jihatdan ham, amaliy hususdan ham qoniqarli darajada hal qilingan emas.

Asliyatning o'ziga hosligi asosan uning tarkibidagi lisoniy vositalarning milliy hususiyatlari bilan belgilanar ekan, demak otaning qiziga pand-nasihat ma'nosida yo'naltirayotgan nutqiy akti kinoya yoki kesatiq (ironiya) tarzida matn orqali berilayotganligini ko'rishimiz mumkin: Asliy matn: **-Uyat emasmi, yuv qo'lingni, yuv!** Ukalaringni bola desam, **sen ulardan ham oshib tushasan!**

O'girilgan matn: **-Aren't you embarrassed** of what you are doing now? Wash your hands, go and wash your hands! Your brothers are too young but it is not good for you, **you are not a child any more**

oshib tushmoq[5.171]-oshig'idan o'tib ketmoq

O'zbek tilida berilgan asl matnning ingliz tiliga o'g'irilgan matnida **-Uyat emasmi, yuv qo'lingni, yuv!** undalma gapini ingliz tilidagi muqobili: **-Aren't you embarrassed** of what you are doing now? tarzida berilgan. Bizningcha ham tarjimon tarjima muqobilini tog'ri bera olgan, chunki o'zbek tilida berilgan gap undalma gap hisoblansada, ingliz tilida so'roq gap tarzida berib qolingga. Shuni eslatib o'tish kerakki, ingliz tilida so'roq gaplar odatda inkor **not** yuklamasi ishtirokida berlsa masalan, **Don't, Mustn't, Can't, Won't...** shular kabi, unda unung ma'nosini **nahotki, shunday emasmi** ma'nosini bildiradi va gap ma'nosini **nasihat, kinoya, kesatiqni** bildirib kelayotgan bo'ladi. **-Aren't you embarrassed** of what you are doing now? **Tarjimasi:** **Nahotki, shu qilayotgan ishingdan uyalmasang!** degan pragmatik ma'noni anglatib qoladi. Your brothers are too young but it is not good for you, **you are not a child any more.** **Tarjimasi:** Ukalaring juda ham yosh, lekin bu ish senga to'g'ri kelmaydi, endi sen bolamassan ma'nosida tarjimon og'irgan, biroq tarjimon **sen ulardan ham oshib tushasan** nutqiy kalimasini gap kontekstida bermay ketgan. Bizningcha, **you are surpassed to them** nutqiy kalimanisini qo'llasa yahshi bo'lardi. Chunki, **to be surpassed[7.1]** fe'lli birikmasini manosi **kimdandir yoki biror narsadan o'zib ketish, kutilganidan oshib ketish** ma'nosini bildiradi. Bu fe'lni taklif qilishimizga sabab, Ra'noni dadasi qizini bolalar bilan bunday o'yinlarni birga o'ynashini kutmagan.

Navbatdagi matnni hab berib o'tsak: Maxdum tomonidan Ra'noning **tergalishi** Nigor oyimni uncha **mashg'ul etmadi**. Ammo hozir uning ko'ngliga kelgan masala erining **chiqim vajiga** favqulodda yeshilib ketishi edi. To'g'ri, Nigor oyimning oshxonasing'a shuningdek bir necha choraklab go'shtlar ko'b kelar edi, faqat eri tomonidan emas. Solih maxdunming **jo'mardlig'i** ko'pincha **yigirma paysa** etdan narig'a oshmas, shunda ham bolalardan **mo'mayroq** «ozodliq» kelib qolsa yoki «panjshanbalik» kutkandan ortig'roq tushsa.

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 8, Avgust 2024

Shuning uchun Nigor oyim bu **jo'mardliq** haqini eriga beralmadı:

- Go'shni ko'broq olibsizmi... Anvar buyurg'anmidi?-deb so'radi.
- Yo'q, - dedi maxdum sallasini qoziqqa ila-ila, - bir manti qilayliq, - dedim, - manti yeganimizga ko'b bo'ldi, **vallohi a'lam...**

Nigoroyim **did not like** Mahdum's words said **towards** Rano. But the matter which was in her mind now was the fact that Mahdum would **get really angry to hear** about spending a large amount of money. For sure, there was always meat provided to Nigoroyim's kitchen. It was supplied by her husband. Maximum what could Mahdum bring was only a kilogram. This also would be brought if there was normal "freedom" by children or if he could get more than he expected from the Thursday".

That's why Nigoroyim could not pay back this good deed by her husband:

- You have brought more meat today, haven't you? Did Anvar ask you? - she asked.
- No, - Mahdum replied putting his salla on to the peg,
- Cook manti³³ today, - he said, - It has been a long time ago when we last had manti...

Tergalmoq[4.72]-1tekshirmoq; nazorat qilmoq; ta'qib ostiga olmoq; kuzatmoq. Xizirov kibrlik bilan: -Maorifning ishini tergay olmaysiz. Nima qilsam, o'zim bilaman,-dedi. P.Tursunov, O'qituvchi

mo'mayroq[3.669]- 1 yahlit va salmoqli (pul va darmad haqida). Omborda g'alamiz, kassada mo'maygina pulimiz ham bor.S.Ahmad, Qadrdon dalalar

mashg'ul etmoq[1.10]-e'tiborni tortmoq

paysa[1.11]- taxminan 50 gmga teng og'irlik o'lchov birligi

paychanbalik[1.12]-eski maktabda xar payshanba domлага yoki otinbibiga o'quvchilar tomonidan keltiriladigan naqd (pul, non, don kabi)

jo'mardliq[1.12] -tantilik, sahiylik

vallohi a'lam[1.7]-(arabcha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, Alloh bilguvchidir)-aniq emaslikni, aniq bilmaslikni ifodalaydi.

cook manti[1.1]-oriental dumplings

Asliy matnda berilgan **tergalmoq** nutqiy kalimasi Ra'noni otasi tomonidan tergalishiga ishora qiladi. Bizningcha, ushbu matnni hamma o'zicha talqin qilishi mumkindir, biroq bizning milliyligimiz nuqtai nazaridan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, odatda qiz farzand ota tomonidan tergalishi tabiiy holat deb o'ylaymiz, chunki ota bolasini hech qachon yomon bo'lishini hohlamaydi va albatta qizini yahshi joylarga uzatgisi keladi. Ushbu gapning

ingliz tilidagi tarjimasiga kelsak, tarjimon barcha nutqiy kalimlaring semantik jihatdan muqobillarini topib qo'llay olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. A. Qodiriy. «Mehrobdan chayon» / roman / «Abadiy barhayot asarlar»turkumi / 2. Nashrga tayyorlovchi: Xondamir Qodiriy.- T.: “Navro‘z”, 2019. - 10b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. M-harfi.-B.669
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. T-harfi.-B.72
5. O'zbek tilining izohli lug'ati.O-harfi.-B.171
6. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o quv qo'llanma /IG'ofurov. O.Mo minov, N.Qambarov.-Toshkent.Tafakkur-Bo'stoni, 2012.216 b.
7. <https://www.vocabulary.com>